YANGI O‘ZBEKISTONDA CHET TILINI O‘QITISHDA MUSTAQIL TA’LIM MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAOMMOLAR VA YECHIMLAR

Sheraliyeva Dilnoza Baxriddin qizi-
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Xamidova Ziyoda Ashurboy qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Ayubova Saida Musadjanovna
Guliston davlat pedagogika instituti,
“Xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: saida.bozorova79@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi O‘zbekistondagi chet tili o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni mustaqil ta’lim olish madaniyatni shakllantirishdagi muammoli holatlari va uning yechimlari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, globallashuv, resurs, peer learning (do‘stlar bilan mashg‘ulot o‘tkazish yoki fikr almashish)

Annotation: This article discusses the problematic aspects of developing students’ independent learning culture in the process of teaching foreign languages in New Uzbekistan and proposes possible solutions.

Keywords: motivation, globalization, resource, peer learning(studying or sharing ideas with friends)

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемные аспекты формирования культуры самостоятельного обучения учащихся в процессе преподавания иностранных языков в Новом Узбекистане, а также предлагаются пути их решения.

Ключевие слова: мотивация, глобализация, ресурс, peer learning (проведения занятий или обмен мнениями с друзьями)

Bugungi zamonaviy globallashuv jarayonida chet tillarini o‘rganish judayam tez suratda o‘sib bormoqda. Chet tilini bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta’minlaydigan muhim omillardan biridir. Shu sababdan ham ta’limning avvalgi bosqichlaridan boshlab yoshlarni chet tillarini o‘rgatishga e’tibor qaratilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “Chet tillarini o‘rganishni ommalashtirish” [1,240] tog‘risidagi qonun ham buning yaqqol misolidir. Xususan ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitish bo‘yicha zamonaviy o‘quv dasturlari ham ishlanib kun sayin o‘quvchilarga va o‘qituvchilarga tatbiq qilinmoqda. Erta ta’limdan boshlab sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish Yangi O‘zbekiston strategiyasining ajralmas qismiga aylandi.Yuqoridagi bir qancha omillarga qaramay ,chet tilini o‘rganishdagi mustaqil ta’limning madaniyatini hali ham shakllantirish muhimligini yaqqol namoyon bo‘layotganiga guvoh bo‘lamiz va chet tilini o‘rganishda mustaqil ta’lim olish madaniyatini shakllantirish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Chet tilini mustaqil o‘rganish madaniyati-bu shaxsning o‘z bilim olish jarayonini ongli ravishda to‘g‘ri tashkil etishi, maqsad qo‘yishi,rejalashtirish, o‘zini baholay olishi va o‘rganishga doimiy rag‘bat hosil qila olishidir. Professor va lingvist Kranshen “Mustaqil o‘rganish-bu shaxsning ichki nazorati, ya’ni inson o‘z bilim jarayonining rahbariga aylanganda haqiqiy o‘qish boshlanadi”. Kranshen fikricha ya’ni,o‘quvchini o‘qishga majbur qilib bo‘lmaydi,uni ilhomlantirish,qiziqtirish va erkinlik berish orqali haqiqiy natijaga erishiladi. [2,62]

Ko‘plab o‘quvchilar va o‘rganuvchilar orasida chet tilini o‘rganishga ichki rag‘bat yetishmayabdi sababi ularni faqat imtihon topshirish,sertifikat olish va talabni bajarish bilan cheklanish sodir bo‘lmoqda. Bu esa o‘rganish jarayonini ichki ehtiyojdan emas,tashqi bosimdan kelib chiqqadigan faoliyatga olib kelishi mumkin. Natijada barqaroq o‘rganish sodir bo‘lmaydi va chet tilini o‘rganish madaniyatiga ta’sir ko‘rsatadi.Bunga misol tariqasida yana Kranshen “Motivatsiyasi kuchli shaxs o‘z ustida ishlashdan charchamaydi,chunki u natijani boshqalarga emas,o‘ziga isbotlamoqchi bo‘ladi”. [2,124] O‘quchilar o‘rganish rejasini tuzish,vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va o‘z faoliyatini tahlil qiliishga odatlanmagan. Bu esa mustaqil ta’lim madaniyatining asosiga zid holatda o‘zini nazorat qilishni kamaytiradi. Ko‘plab o‘quvchilar chet tilini o‘rganishni faqatgina “O‘qitish kurs’lariga borish bilan cheklanib , o‘z shaxsiy o‘rganish tizimini shakllantirmaydilar va bu esa faqat o‘qituvchiga to‘liq tayanish holatini kuchaytiradi. Arab yozuvchisi Abu G‘uddaning “Ilm olish sirlari” da shunday ma’noli jumlani keltirgan; “Ustoz-yo‘l ko‘rsatuvchi,ammo yo‘lni bosib o‘tuvchi o‘zi bo‘lishi kerak”. [3,196] Demak,o‘quvchi mustaqil o‘rganishga odatlanmasa,ustozning mehnati ham to‘liq samara bermaydi.

Raqamli davrda o‘rganish uchun imkoniyatlar ko‘p bo‘lsa-da,ularni to‘g‘ri foydalanish madaniyati hali hanuz odamlar orasida muammo bo‘lib qolmoqda yoki past darajada.Misol tariqasida onlayn platformalari (Coursera, BBC learning English, Duolingo) to‘liq omma orasida o‘zlashtirilmagan, mobil ilovalar orqali o‘rganishda izchilikni saqlamaydi, internetdagi materiallarni to‘g‘ri tanlab olib o‘rganish ko‘nimasiga ega emas.

Yangi Ozbekistonda chet tilini o‘rganishda asosiy muammo-bu mustaqil o‘rganish madaniyatining to‘liq shakllanmaganligidir. Bu muammolarni bartaraf etish uchun avvalo, o‘quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytirish; metakognitiv ko‘nikmalarni (o‘zini kuzatish, baholash, tahlil qilish) to‘liq rivojlantirish (raqamli ta’lim madaniyatini oshirish); o‘quvchi shaxsini o‘rganish jarayonining markaziga qo‘yishi zarurdir. Va so‘z oxirida “Ilm olish sirlari” kitobidan yana bir iqtibos keltiramiz “Kim ilmni mustaqil o‘rganishga odatlansa,u umrining har daqiqasida yangi ma’no topadi.” [3,54-55] Albatta, bu fikr ham chet tilini mustaqil o‘rganishda madaniyat shakllanishiga shior bo‘lib qolsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-5117-son qarori.-Toshkent, 2021-yil19-may.6 b.
2. Kranshen,P. Self-regulated learning and motivation in language education.Cambridge ; Cambridge University Press, 2015, p. 214
3. “Ilm olish sirlari”.(arab tilidan tarjima).-Toshkent: “Hilol Nashr”. 2018. 196 b.